

## AVTOMOBIL DVIGATELLARINI TASHXISLASH VA TA'MIRLASH

**Jo'rayev Og'abek Ulug'bekovich**

*Jondor tuman 1-sonli kasb-hunar maktabi Ishlab chiqarish ta'lim ustasi  
Avtomobil dvigatellariga servis xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari fani  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, avtomobillar va ularning dvigatellariga hizmat ko'rsatish servislari, dvigatellarini tashxislash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish jarayonlari haqida so'z yurutilgan.

**Kalit so'zlar:** Avtomobil, tashxislash, ta'mirlash, dvigatel, servis xizmat, ichki yonuv dvigatel.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о процессах обслуживания автомобилей и их двигателей, диагностике и ремонте их двигателей.

**Ключевые слова:** Автомобиль, диагностика, ремонт, двигатель, сервис, двигатель внутреннего сгорания.

**Annotation:** This article describes the processes of servicing cars and their engines, diagnosing and repairing their engines.

**Key words:** Automobile, diagnostics, repair, engine, service, internal combustion engine.

Dvigatellar – issiqlik energiyasini mexanik energiyaga aylantirib beradigan qurilmadir. Uning turlari, ichki yonuv, dizel, reaktiv dvigatellari mavjud. Silindrlar soni esa turlicha bo'ladi. Ichki yonuv dvigateli esa bir yoki bir necha silindrli bo'ladi. Bu turdagи dvigatellarni ko'proq avtomobillarda uchratishimiz mumkin.

Ichki yonuv dvigateli - yonilg'inining kimyoviy energiyasini mexanik ishga aylantirib beradigan porshenli issiqlik dvigateli. Gaz bilan ishlaydigan birinchi yakorli Ichki yonuv dvigatelinini fransuz mexanigi E.Lenuar (1860) loyihalagan; 1876 yilda nemis kashfiyotchisi N.Otto ancha mukammal 4 taktsli Ichki yonish dvigateli yasagan. Rossiyada 1880-yillarda O.S.Kostovich benzin bilan ishlaydigan karbyuratorli dvigatel yasadi. R. Dizel 1897 yilda yonilg'ini siqilgan havo alan-galatadigan Ichki yonuv dvigateli(dizel)ni taklif qildi. AKD1 da Ichki yonuv dvigateli o'rnatilgan birinchi traktor 1901 yilda ishlab chiqildi; aka uka O. va U.Raitlar Ichki yonuv dvigateli o'rnatilgan dastlabki samolyotni yasashdi; bunday samolyotlar 1903 yilda ucha boshladi. Shu yili rus muxandislari Ichki yonuv dvigatelinini "Vandal" kemasiga o'rnatishib, birinchi teploxdoni yaratishdi. 1924 yilda Rossiyada Ya.M.Gakkel loyihasi bo'yicha birinchi teplovod qurildi. 1957 yilda rotorporshenli Vankel dvigateli yaratildi. Hozirgi paytda Ichki yonuv dvigateli avtomobillar, qishloq xo'jaligi va yo'l qurilishi

mashinalarida, o'ziyurar harbiy texnikada, mototsikllar va boshqalarda keng ishlatalmoqda.

Shundan ma'lumkin dvigatel yonilg'ini sarflovchi qurilma hisoblanadi. Yonilg'ini isrof qilmasdan to'g'ri sarflay olish ham dvigatelning tashxislash jarayonidir. Shuning uchun, haydovchilar o'z avtoulovlarini yonilg'isini tejash eng muhimi hisoblanadi. G'ildiraklarga e'tiborli bo'lish lozim. Ba'zi avtomobil egalari g'ildiraklarni iloji boricha kattaroq qilib o'rnatishga harakat qilishadi. Masalan, R14 o'rniga R16 qo'yadi. Bu avtoulovni biroz ko'tarishga imkon beradi va bu ko'rinish yanada chiroyli ko'rinishi mumkin. Ammo bunday holatlar yoqilg'inining ortiqcha sarflanishiga olib kelishi mumkin. Ba'zi manbalarning ta'kidlashicha, 1sm radius qo'shilishi har 100 km ga 1 litr iste'molni ko'payishiga olib keladi. Shinalar bosimini nazorat qilish haqida unutmaslik lozim. Ko'rsatkichlar ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlarga mos kelishi kerak. Shunday qilib, bosimning 0,5 kg / sm<sup>2</sup> ga pasayishi yonilg'i sarfini taxminan 3 foizga ko'payishiga olib keladi. Shinalarining mavsumiy o'zgarishi haqida unutmaslik lozim. Garajlarning ahamiyati juda katta, nafaqat avtoulovingizni xavfsizligini ta'minlash uchun ajoyib imkoniyat, balki yonilg'i sarfini kamaytirishning bir usuli hisoblanadi. Issiq mavsumda bu maslahat juda dolzarb emas. Ammo sovuq havoda avtoulovni qizdirish uchun nisbattan ko'proq vaqt kerak bo'ladi bu o'z navbatida ortiqcha yoqilg'i deganidir. Bundan tashqari, havo harorati qancha past bo'lsa, qo'shimcha xarajatlar shunchalik ahamiyatlari bo'ladi. Yana shuni aytish lozimki, avtomobil dvigatelini mo'tadil haroratda tutush juda muhimdir.

Yonilg'i turiga qarab, Ichki yonish dvigateli suyuq va gazmison yonilg'ida ishlaydigan, silindrning yangi yonuvchi aralashma bilan to'lish usuliga ko'ra, 4 taktli va 2 taktli, yonilg'i va havodan yonuvchi aralashma tayyorlash usuliga karab, aralashma silindr dan tashqarida va silindr ichida tayyorlanadigan xillarga bo'linadi.

Yonuvchi aralashma silindr dan tashqarida, ya'ni karbyuratororda tayyorlanadigan Ichki yonish dvigateli karbyuratorli dvigatel, silindr ichida tayyorlanadigani dizel deb ataladi. Karbyuratorli Ichki yonish dvigatelida ish aralashmasi sham (svecha) elektrodlari orasida hosil bo'ladigan elektr uchquni bilan, dizellarda esa silindrda siqib qizdirilgan havoga yonilg'i purkash yo'li bilan o't oldiriladi.

Ichki yonish dvigateli 1, 2, 4, 6 va h. k. silindrli bo'ladi. Bir silindrli, 4 taktli, karbyuratorli Ichki yonish dvigateli quyidagicha ishlaydi (rasm): kiritish taktida (A) havo tozalagich / orqali havo o'tib, karbyurator 2 da u yonilg'iga aralashadi va yonuvchi aralashma hosil qiladi; bu aralashma kiritish klapani 3 orqali silindr 6 ga kiradi, qisish takti (F)da yonuvchi aralashma 0,8—2 Mpa gacha siqladi, 200—400 gacha qiziydi. Porshen 10 yuqori chekka nuqta (yu.ch.n.)ga 20—40° (tirsakli valning aylanish burchagi) yetmasdan aralashma sham 4 dan o't oladi. Porshen yu.ch.n.ga yetgach, aralashma tekis yona boshlaydi. Gazlar bosimi 3—6 Mpa ga, temperaturasi

esa  $2200^{\circ}$  gacha yetadi. Kengayish (ish) takdi (V)da porshen gaz bosimi ta'sirida pastga harakatlanib, shatun 7 vositasida tirsakli val 8 ni aylantiradi. Gaz bosimi 0,3—0,4 MPa, temperaturasi esa  $900—1200^{\circ}$  gacha pasayadi. Chiqarish takti (G) da chiqarish klapani 5 porshen pastki chekka nuqta (p.ch.n.)ga  $30—60^{\circ}$  yetmasdan ochila boshlab, yu.ch.n.dan  $10—28^{\circ}$  o'tgandan keyin yopiladi. Demak, Ichki yonish dvigatelining bir ish sikkida tirsakli val ikki marta aylanadi, shundan yarim aylanish gazlarning porshenga ta'siri hisobiga, qolgan bir yarim aylanish zalvar massa (maxovik) 9 ning inersiya kuchi hisobiga yuz beradi. Silindrlar soni qancha ko'p bo'lsa, Ichki yonish dvigateli shuncha tekis ishlaydi, tirsakli val ham shuncha ravon aylanadi. To'rt taktli dvigatelda ish sikli porshenning to'rt yo'li (takti)da, ikki taktli dvigateley esa ikki yo'lida bajaradi.

Karbyuratorli Ichki yonish dvigatelining ish sikli paytida val katta ( $3000—7000$  ayl/ min) tezlikda aylanishi mumkin, poyga avtomobilari va mototsikllarida val 15000 ayl/min va bundan ham tez aylanadi. To'rt taktli karbyuratorli Ichki yonish dvigateli 600 kW (800 o.k.). Porshenli aviatsiya dvigatellari 1100 kW (1500 o.k.) gacha quvvat hosil qiladi.

Ichki yonish dvigatelinini takomillashtirishda quvvatini borgan sari oshira borish, avtomobilarda karbyuratorli dvigatellar o'miga dizellarni ko'proq qo'llash, har xil yonilg'i bilan ishlaydigan dvigatellar yaratish va boshqa tadbirlarni ham amalga oshirishga harakat qilinmoqda.

Dvigatelning umumiy ta'miri – juda murakkab, ko'p bosqichli jarayon. Motor – har qanday avtomobilning yuragi va usta uning tuzilishini to'liq bilishi, ta'mirlashning o'ziga xosliklarini tushunishi lozim. Muammo hal qilinishiga umid qilgan holda, shunchaki dvigateli ochish mumkin emas. Avval, doim, diagnostika o'tkaziladi.

Yuk avtomobillarining dvigatellariga katta e'tibor bilan munosabatda bo'lishadi. Bunday mashinalar uzoq muddatli yuk tashishlar bilan band va reysda mashina buzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Axir dizel motorini ta'mirlash bo'yicha mutaxassis qidirishga to'g'ri keladi. Tasavvur qiling, Toshkent – Moskva yo'nalishi, yo'lning yarmida, odamlar yashamaydigan joyda mashinangiz buzildi. Tyagach va yuk mashinalarining dvijoklari texnik xizmat ko'rsatish stansiyalarida tekshiriladi, ular reys oldidan ideal holatda ishlashi kerak.

Avtomobil dvigateli haqida siz nimalarni bilasiz? Quvvati, yoqilg'i turi... shu bilan ma'lumotlar tugaydi. Bu asosiy tushunchalar. Aksariyat zamonaviy avtomobillar ot kuchining soni bo'yicha farq qiladigan, turli benzin yoki dizel dvigatellar bilan jihozlanadi. Va faqat ta'mirlash bo'yicha mutaxassislargina motorlar haqida barchasini bilishadi. Ba'zan esa, undan ham ko'prog'ini.

Dvigateli ta'mirlash bo'yicha mutaxassisning "qabuliga" xizmat ko'rsatish markaziga qachon borish kerak? Nosozlikni anglatuvchi bir nechta alomatlar bor. Ortiqcha tovushlar, yoqilg'i va moyning ortiqcha sarfi, zaglushka... Bu mutaxassisdan

maslahat olish uchun murojaat qilish sifatlari ta'mirlash bilan shug'ullanish lozimligini bildiradi.

Bunday xizmatni ko'p avto xizmat markazlari taqdim qilishadi. Muammo shundaki, ustuning malakasi va tajribasi doim ham kutilganidek bo'lmaydi, masalan, sifatlari ehtiyyot qismlari va sarflanadigan materiallar yo'q. Axir, avtomobilimizning dvigateli bilan mutaxassislar shug'ullanishini istaymiz. Ta'mirlash yoki xizmat ko'rsatish jarayonida eng yaxshi qismlar va moylash vositalaridan foydalanilishi kerak.

Ustabor.uz portalı – istalgan markadagi avtomobilarni ta'mirlash bo'yicha mutaxassislar katalogi.

Bu yerda siz avtomobillar bilan bir necha yil shug'ullanib, tajribaga ega bo'lgan insonlarni topishingiz mumkin. Foydalanuvchilarga dizel va benzin dvigatellarining ta'mirini amalga oshiruvchi yirik ustaxonalar va xususiy ustalarining ma'lumotlari ochiq. Xizmat ichiga diagnostika, istalgan agregatlarning mayda va umumiyligi ta'miri kiradi.

## Xulosa

Xulosa qilb shuni ta'kidash mumkinki, yuqoridagi barcha omillar ham dvigatel ishlash jarayonidagi to'liq bo'lgan tashxislar qatoriga kira olmaydi, albatta, dvigatel ishlashida tashqi ta'sirlar ham, xatto havo harorati ham tasir qiladi. Yuqoridagi barcha berib o'tilgan tashxis va ta'mirlah jarayonlarida avtoulovning o'z egasiga qo'yilgan zaruriy va majburiy vazifa hisoblanadi. Agarda haydovchi o'z avtomobil harakatiga, tovushiga, dvigatel ishlashiga, uyurayotgan paytda xatto g'ildiraklar harakatiga e'tiborsizlik qilsa, u erta mudatda o'z avtoulovini sifatsiz texnika qurilmasiga aylantirib qo'yadi. Har bir haydovchi avtomobil dvigatelinini, va albatta barcha avtomexanika qoidalarini bilib olgan bo'ishi lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akilov A.A. va boshq. Avtomobilning umumiyligi tuzilishi: Darslik /– T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.
2. Baxtiyorovich, A. I., & Ogli, R. U. F. (2021). YENGIL AVTOMOBILLARDA YOQILGI SARFINI KAMAYTIRISH USULLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.
3. Raxmatov, O., & Sotvoldiyev, X. R. O. G. L. (2021). AVTOTRANSSPORT VOSITALARIGA MAVSUMIY SERVIS XIZMAT KO'RSATISH TURLARI VA ULARNING XARAKAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 1147-1151.
4. <https://fvv.uz/uz/menu/iqlim>